

SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH VA SOTISH HOLATINING TAHLILI

Xidirov Temur Qahramon o‘g‘li
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, katta leytenant
E-mail: xidirov_temur@mail.ru
Tel: +99894-658-79-03

Annotatsiya. Ushbu maqolada sutni qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish holatining tahlili, pandemiya sharoitidagi oziq-ovqat sanoatidagi muammolar va ularni mamlakatimizda yumshatishga qaratilgan yechimlari, jahon davlatlaridagi oziq-ovqat muammolari, mamlakatimizdagi sutni qayta ishlash korxonalarining faoliyati, mahsulotlari va narxlarining holati bo‘yicha dolzarb masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: sutni qayta ishlash, pandemiya, jahon tajribasi, sut mahsulotlari bozori, narx siyosati, sut mahsulotlari brendi.

Аннотация. В данной статье научно изложен анализ состояния производства и реализации продукции на молокоперерабатывающих предприятиях, проблемы в пищевой отрасли в период пандемии и пути их решения по их смягчению в нашей стране, проблемы с продовольствием в странах мира, а также актуальные вопросы, связанные с деятельностью, продукцией и ценами молокоперерабатывающих предприятий нашей страны.

Ключевые слова: переработка молока, пандемия, мировой опыт, рынок молочных продуктов, ценовая политика, молочный бренд.

Annotation. This article scientifically describes an analysis of the state of production and sales of products at milk processing enterprises, problems in the food industry during the pandemic and solutions aimed at mitigating them in our country, food problems in countries around the world, and current issues related to the activities, products, and prices of milk processing enterprises in our country.

Key words: milk processing, pandemic, world experience, dairy market, pricing policy, dairy brand.

KIRISH

Dunyoda zamon shiddat bilan o‘zgarib borayotganligi uchun turli xil kasalliklar, tabiiy ofatalar, global iqlim o‘zgarishi hamda aholining salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi viruslarni paydo bo‘layotganligi, nafaqat aholining salomatligiga hatto uning iste’mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Jumladan, COVID-19 deb nom olgan koronavirusni keng tarqalishi aynan dunyo miqyosida aholi salomatligiga va iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga katta muammo tug‘dirdi. Chunki, pandemiya sharoitida aholi o‘rtasida koronavirus keng

tarqalib ketganligi uchun, odamlar ishlamasdan uyda qolishga majbur bo‘ldi. Natijada esa, millionlab korxonalarda ishlab chiqarish salohiyati keskin darajada pasayib ketdi. Ishchi xodimlarni uyda o‘tirishi korxonalar iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Eng muhimi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo‘lgan talab yuqori darajada ortib ketdi. Sababi, koronavirusni engish uchun aholining kasallikka qarshi kurasha oladigan immuniteti baland bo‘lishi lozimligi, aynan iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj tug‘dirdi. Joriy 2020-yilning I-choragida O‘zbekistondagi iqtisodiy o‘sinh sur‘ati o‘tgan yildagi mos davrga nisbatan 1,6 foizga sekinlashishi kuzatilgan.

Bundan tashqari, bu davrda o‘tgan yilgiga nisbatan investitsiyalar o‘zlashtirish hajmi ham sezilarli qisqargan. Bu haqida, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan O‘zbekiston iqtisodiyotining joriy holati va kutilayotgan tendensiyalar bo‘yicha ma’lumotida keltirib o‘tilmoqda, 2020-yilning II-choragida iqtisodiy o‘sinh sur‘ati 4,1 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichiga (5,7 foiz) nisbatan 1,6 foizga sekinlashishi kuzatilgan¹.

Muhtaram, Prezidentimiz tomonidan olib borilgan tashabbuslar bilan pandemiyani oldini olishga qaratilgan ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-mart kuni “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko‘ra, Global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo‘lgan O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar ta’sir qilmoqda, bu esa o‘z navbatida ushbu holatning salbiy ta’sirlarini yumshatish bo‘yicha samarali oldini oluvchi choralar ko‘rishni talab qiladi².

Undan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-aprelidagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ham qabul qilindi. Unga ko‘ra, amalga kiritilgan karantin rejimi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan qarzdorlarning muddati o‘tib ketgan kreditlariga garov ta’minoti bo‘yicha jarima sanksiyalari va undiruv choralari qo‘llamaslik³ kabi muhim masalalar belgilangan

¹ M.Қ.Пардаев, А.А.Эштаев “Пандемия шароитида ўзбекистон иқтисодиёти ва туризм соҳасидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари ҳақида”, Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журнали 1-сон, 2021 й. -с.55-57.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-son Farmoni. 2020 yil 19 mart. - www.lex.uz

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5978-son Farmoni. 2020 yil 3 aprel. - www.lex.uz

bo‘lib, ularni o‘z vaqtida ijrosi ta‘minlandi. Pandemiya sharoitida bir qator davlatlarda oziq-ovqat muammosi kuzatilganligi sabab turli xil cheklovlar joriy etildi. Jumladan, Rossiya bug‘doyini 1-iyulgacha chetga olib chiqishni taqiqladi. Rossiya boshqa donli mahsulotlar - javdar, arpa va makkajo‘xori eksportini ham vaqtincha to‘xtatdi, buni mamlakat ichki ehtiyojlarini qondirish zaruriyati bilan izohlaydi. Qozog‘iston qo‘shnilari -O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Afg‘onistonga 1-avgustgacha har oy 200 ming tonna bug‘doy, 60 ming tonna un eksporti kvotasini joriy etdi. Yevro Osiyo Iqtisodiy Ittifoqi hududidan tashqariga piyoz, sarimsoq, javdar, sholg‘om, guruch, yorma, g‘alladon, qorabug‘doy, tariq, butun donli un, tozalangan grechka, soya dukkaklari, kungaboqar urug‘larini olib chiqish 30-iyunga qadar taqiqlandi. Ushbu mahsulotlarning asosiy ishlab chiqaruvchilari – Rossiya va Qozog‘iston bo‘lishadi. Ukraina esa joriy yilning 1 iyuliga qadar grechkani eksportga chiqarishni taqiqladi⁴.

Bugungi kunga kelib, pandemiya holati to‘liq bartaraf etildi, sut mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonlar soni ham yildan-yilga ortib borayotganligi, bu sohani yanada rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda sut mahsulotlarini qayta ishlaydigan bir qator yirik, o‘rta va kichik turdagi korxonlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Jumladan, o‘zining mahsulotlari bilan tanilgan xaridorgir brendlardan biri “Melek Best Milk Agro” korxonasi hisoblanadi.

Korxonaning asosiy faoliyati oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda sutni qayta ishlash orqali turli xil sut mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan. Korxonada o‘zining ish faoliyatini 2009-yildan boshlab, dastlab un ishlab chiqargan, 2015-yildan buyon o‘simlik moyi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan. Korxonada 2018-yilga kelib, sut va sut mahsulotlari zavodini ishga tushiradi hamda 2019-yildan sut mahsulotlarini qayta ishlashni amalga oshiradi. Korxonada tomonidan qayta ishlangan barcha sut mahsulotlari yuqori darajadagi xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqariladi. Korxonadagi barcha sertifikatlar ISO 9002 xalqaro standartlariga to‘liq javob beradi. Korxonada sut mahsulotlarini faqat to‘liq tabiiy sigir sutidan ishlab chiqaradi⁵. Korxonada dastlab, “Diyora Fayz Gulshani” mas’uliyati cheklangan jamiyati nomi bilan faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, Turonbank aksiyadorlik tijorat bankining 7,1 mln. dollarlik moliyaviy ko‘magi bilan Melek Best Milk Agro brendi sifatida o‘z biznesini kengaytirgan. Korxonada Toshkent viloyati, Zangiota tumanida joylashgan 5.2 gektar maydoni egallagan yirik zavodga aylanib, katta sanoat hududini tashkil etadi. Hozirgi kunda korxonada 1000 boshdan ortiq naslli qoramollar Yevropa standartlariga mos ravishda boqilmoqda. Natijada, 50 xildagi

⁴ М.Қ.Пардаев, А.А.Эштаев “Пандемия шароитида иқтисодиёт: муаммолар ва уларнинг ечимлари хусусида”// “СЕРВИС” илмий-амалий журнали, 2020 й. Махсус сони. -с 7-8.

⁵ <https://melek.uz>

yuqori sifatli sut va sut mahsulotlari, un mahsulotlari hamda kungaboqar yog‘i ekologik toza xom ashyolar asosida ishlab chiqarilmoqda. Zavodning quvvati esa soatiga 10 tonna sutni qayta ishlash, yiliga 23 - 24 tonna pishloq, 19 - 20 tonna sut mahsulotlari hamda 60 - 70 tonna saryog‘ tayyorlashga yetadi⁶. “Melek Best Milk Agro” korxonasi klaster tizimi asosida faoliyat olib borayotgan korxonada bo‘lib, sutni qayta ishlash orqali, 1-jadvalda aks ettirilgan quyidagi sut mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

1-jadval

“Melek Best Milk Agro” korxonasi tomonidan sutni qayta ishlash orqali ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlari katalogi⁷

T/r.	Mahsulot nomi	Hajmi	Yog‘lilik darajasi
1.	Yogurt	500 ml	2,5 %
2.	Ayron	1000 ml	2,5 %
3.	Kefir	500/1000 ml	1 %
4.	Qaymoq	200/400 gr	35 %
5.	Smetana	200/400 gr	25 %
6.	Tvorog	200/400 gr	5 %
7.	Saryog‘	250 gr	82,5 %
8.	Gauda	250 gr	51 %
9.	Pishloq	200 gr	5 %

Jadvaldan ko‘rinadiki, hozirgi kunda “Melek Best Milk Agro” korxonasida sutni qayta ishlash orqali yogurt, ayron, kefir, qaymoq, smetana, tvorog, saryog‘, gauda pishlog‘i hamda suyuq pishloqlar ishlab chiqarilmoqda. “Melek Best Milk Agro” korxonasi tomonidan qayta ishlangan sut mahsulotlari Toshkent shahridagi savdo tarmoqlarida ko‘p sotiladigan mahsulotlar sarasiga kiradi. “Melek Best Milk Agro” korxonasi tomonidan sutni qayta ishlash orqali, ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlarini Toshkent shahrida joylashgan bozorlar va savdo tarmoqlaridagi o‘rtacha sotish narxlarining tahlili quyidagi 2-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan.

2-jadval

“Melek Best Milk Agro” korxonasi tomonidan sutni qayta ishlash orqali ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlarini o‘rtacha sotish narxlarining tahlili (2022 yil)⁸

T/r	Mahsulot nomi	Hajmi	Yog‘lilik darajasi	O‘rtacha narxi
1.	Kefir	0,5 ml	1 %, 2,5 %	10000-12000 so‘m
2.	Qaymoq	200 gr	35 %	17000-20000 so‘m

⁶ https://turonbank.uz/oz/press_center/news/turonbank-atb-krediti-yangi-melek-brendi-yaratilishida-asos-b-ldi.

⁷ Melek korxonasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁸ Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

3.	Yogurt	300 gr	2,5 %	6000-8500 so‘m
4.	Ayron	200 gr	1 %	6500-7500 so‘m
5.	Saryog‘	200 gr	82,5 %	15000-17500 so‘m
6.	Gauda	1 kg	45 %	125000-150000 so‘m
7.	Smetana	200 gr	25 %	14000-17000 so‘m
8.	Tvorog	200 gr	5 %	12000-15500 so‘m
9.	Pishloq	200 gr	50 %	20000-25500 so‘m

Jadvalda, “Melek Best Milk Agro” korxonasi tomonidan sutni qayta ishlash orqali, ishlab chiqarilayotgan sut mahsulotlarini savdo tarmoqlaridagi o‘rtacha sotish narxlari tahlil qilingan bo‘lib, tahlil jarayonida narxlar milliy valyuta birligida ko‘rsatib o‘tilgan hamda mahsulotlarni yog‘lilik darajasi va ularning hajmiga ko‘ra sotish narxlari aniqlanganli qayd etilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, sutni qayta ishlash korxonalari tomonidan sut mahsulotlarini qayta ishlashga bo‘lgan e‘tibor kundan-kunga rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston sut bozorida sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan yangi brendlarni soni yildan-yilga ortib borayotganligi, aholini tomonidan qayta ishlangan sut mahsulotlariga bo‘lgan talabini yuqori darajada ortib borayotganligidan dalolat beradi. Sutni qayta ishlash korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun samarali klaster tizimini rivojlantirish muhimdir. Sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan yirik, o‘rta va kichik hajmdagi korxonalar faoliyat olib bormoqda. Ushbu korxonalar tomonidan o‘rtacha 50 dan ortiq turdagi qayta ishlangan sut mahsulotlari aholi iste‘moli uchun yetkazib berilmoqda. Klaster tizimini samarali tarzda qo‘llash korxonalar o‘rtasidagi xarajatlarini kamaytirishda eng muhim omil hisoblanadi. Sutni qayta ishlash korxonalarida klaster tizimini yanada takomillashtirish mahsulot hajmini oshirishga, qayta ishlash tizimini yanada rivojlantirishga hamda sotish narxlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-son Farmoni, 2020-yil 19-mart, - www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub‘ektlarini qo‘llab-quvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5978-son Farmoni, 2020-yil 3-aprel, - www.lex.uz

3. М.Қ.Пардаев, А.А.Эштаев “Пандемия шароитида ўзбекистон иқтисодиёти ва туризм соҳасидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари ҳақида”, Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журнали 1-сон, 2021 й. -с.55-57.
4. М.Қ.Пардаев, А.А.Эштаев “Пандемия шароитида иқтисодиёт: муаммолар ва уларнинг ечимлари хусусида”// “СЕРВИС” илмий-амалий журнали, 2020 й. Махсус сони. -с 7-8.
5. <https://melek.uz>
6. https://turonbank.uz/oz/press_center/news/turonbank-atb-kredit-yangi-melek-brendi-yaratilishida-asos-b-ldi.